

TURIZM VA REKREATSIYANING RIVOJLANISHIGA TA'SIR

ETUVCHI OMILLAR

M.O.Raximberdiyev - *Qarshi davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya sohaslarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Xususan, tabiiy-geografik sharoitlar, iqtisodiy imkoniyatlar, transport infratuzilmasi, siyosiy barqarorlik, madaniy meros va ekologik holatning bu jarayondagi o'rni yoritilgan. Maqolada turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va istiqbolli yo'nalishlar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, rekreatsiya, rivojlanish omillari, infratuzilma, ekologiya, iqtisodiyot, siyosiy barqarorlik, madaniy meros, investitsiya, marketing strategiyasi

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ

М.О.Рахимбердиев - *магистрант Каршинского государственного университета.*

Аннотация: В статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие туризма и рекреации. В частности, выделяется роль природно-географических условий, экономических возможностей, транспортной инфраструктуры, политической стабильности, культурного наследия и экологических условий в этом процессе. В статье также рассматриваются необходимые условия и перспективные направления дальнейшего развития туристической сферы.

Ключевые слова: туризм, рекреация, факторы развития, инфраструктура, экология, экономика, политическая стабильность, культурное наследие, инвестиции, маркетинговая стратегия

FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATION

M.O. Rahimberdiyev - *Master's student at Karshi State University*

Abstract: This article analyzes the main factors influencing the development of tourism and recreation. In particular, the role of natural and geographical conditions, economic opportunities, transport infrastructure, political stability, cultural heritage and environmental conditions in this process is highlighted. The article also considers the necessary conditions and promising directions for the further development of the tourism sector.

Keywords: tourism, recreation, development factors, infrastructure, ecology, economy, political stability, cultural heritage, investment, marketing strategy

Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda, hududning turizm-rekreatsioon salohiyati va infratuzilma tizimlarini shakllantirishda turli omillar va shart-sharoitlarning ta'siri

muhim ahamiyatga ega. Ular orasida tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tibbiy-biologik, etnik, ijtimoiy-psixologik va boshqa omillar alohida o'rin tutadi.

Mintaqada turizmni rivojlantirishda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, infratuzilmaviy omillar muhim ahamiyatga ega. Ular turistik markazlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni quyidagi 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

- tabiiy omillar - relef, iqlim, suv resurslari, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaftlari, ekologik holati, muhofaza etiladigan hududlar turistik hududlarning jozibadorligini oshiradi;

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar - iqtisodiy va geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy ob'ektlar, sug'urta va moliya, aholi daromadlari, ta'lim, sotsiologik, nogeografik, kriminogen, innovatsion va sarmoyaviy muhit;

- infratuzilma omillari - mehmonxonalar va boshqa joylashtirish tizimlari, umumiy ovqatlanish tizimlari, transport xizmatlari, savdo shoxobchalari, ko'ngilochar maskanlar, madaniyat tashkilotlari, muhandislik va qurilish ob'ektlari infratuzilmaning rivojlanish darajasini belgilaydi;

- siyosiy omillar - geosiyosiy vaziyat, inqirozlar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotni harbiylashtirish, chegaralarni ochish mamlakatlar bo'ylab sayyohlikni rag'batlantiradi yoki aksincha chegaralaydi.

Tabiiy omillar tarixan rekreatsiya va turizmni rivojlantirish uchun asos bo'lib kelgan. Tabiiy omillarga re'lef, iqlim, suv havzalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq kabilar muhim ahamiyat ega. Atmosfera umumiy sirkulyatsiyasining namoyon bo'lishlaridan biri shamol bo'lib, u ayni paytda ob-havo sharoitlarining turizm va rekreatsiya uchun qulayligini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi [1].

Rekreatsiyani tashkil etishda meteorologik elementlar, jumladan, qulay haroratning davomiyligi, quyosh nurlari davomiyligi, havoning nisbiy namligi va boshqalar insonlarni dam olishi, salomatligi va uni tiklashda e'tiborga olinadi.

Suv havzalarining geoekologik roli turli tuman bo‘lib, tog‘ va tekislik daryolari, chuqurligi va sho‘rligi bilan ajralib turuvchi ko‘llar xilma-xil turistik sayohatlari va sport tadbirlari: ekstremal rafting, akvalang bilan suv ostiga sho‘ng‘ish hamda yil bo‘yi baliq ovini uyushtirishda muhim omil hisoblanadi [2]. Demak, suv havzalarida rekreatsion faoliyat davolash-sog‘lomlashtirish, sport va sayyohlik, baliq ovi va ovchilik faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Cho‘milish mavsumi suv havzalarida suvni harorati 18°C ga yetganda boshlanadi (cho‘milish uchun qulay harorat, suvning harorati 18 dan 24 °C [3]. Bu suv havzalarini rekreatsion zonalarga aylantirishga yordam beradi, hamda ko‘plab dam olish va ko‘ngilochar obektlar (sanatoriya-kurortlar, dam olish uylari, turbazalar va boshqalar) joylashishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda floraning ahamiyati katta, ular o‘simliklarning ionlashtiruvchi va fitonsid xususiyatlari tufayli landshaftning shifobaxsh ta’siri bilan bog‘liq; O‘rmonlar, jumladan, aralash va qarag‘ay o‘rmonlari eng yaxshi ionlashuvga ega ekanligi aniqlandi. Dam olishda asosiy vazifani bajaradigan o‘rmonlar, ushbu hududning sanitariya-gigiyena sharoitlarini ham belgilaydi. O‘rmonlar insonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan himoya qiladi va yoz kunida havo haroratini 1-1,5 °S ga tushiradi, atmosfera namligini (30% gacha) oshiradi, atmosfera havosini sanoat ifloslanishidan ham tozalaydi.

1-jadval

**Turli xil yashil maydonlarda shovqin va ifloslanishining
kamayish darajasi**

O‘simlik turlari	Magistral yo‘llardan uzoqligi, m				
	50	100	150	200	250
	Shovqinni kamaytirish, dB				
Keng bargli daraxt turlari					
Dub, terak	4,2	6,1	8,0	9,0	10,0
Butalar	6,0	9,1	11,5	12,5	14,0
Ignabargli daraxt turlari					
Qarag‘ay	7,0	11,0	12,5	14,0	15,5
Sosna	9,0	12,2	14,2	16,0	17,5

Manba: Колотова Е.В. Рекреационное ресурсосведение. Учеб. пособие. М. 1999.

Turli xil daraxt turlarining chang o'tkazmaydigan xususiyatlari bir xil emas. Yil davomida 1 ga. o'rmon 50-70 tonnagacha changni filtrlay oladi. Masalan, archa barglari orqali har yili havodan 32 t/ga chang, qarag'ay - 36, eman - 56, olxo'ri - 68 t/ga gacha filtrlaydi [4], shovqinni va ifloslanishini kamaytiradi. Daraxt barglari sodir bo'lgan tovush energiyasining o'rtacha 25% ini o'zlashtiradi va bu energiyaning taxminan 75% aks ettiriladi va tarqatadi. Ignabargli o'simlik turlari eng yaxshi shovqin yutuvchi xususiyatlarga ega, bu esa rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi (1-jadval).

"Hayvonot dunyosi turizm uchun ikkita qarama-qarshi funksiyani bajaradi: bir tomondan, u tanishuv, baliq ovi va ovchilik turizmi uchun turizm-rekreatsiya resursi bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, turizmni rivojlantirishda cheklovchi omil hisoblanadi. Tanishuv turizmida hayvonlar olami vakillarini, tabiiy yoki ular atrofiga yaqin bo'lgan turistik hududlarda sayyohlarga ko'rsatish yoki bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega". Turistik faoliyatda ovchilik va baliq ovi turizmi yovvoyi hayvonlar va baliqlarning turlari ko'p bo'lishiga ham bog'liq holda rivojlanadi.

Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar tibbiy-davolanish, sog'lomlashtirish turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mineral suvlar harorati, kislotalilik, minerallashuvi va gazlari tarkibi bo'yicha tasniflanadi. Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlarning mavjudligi mintaqaning ko'plab hududlarida davolanish-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishda va turizm infratuzilmasining joylashishini ham belgilaydi. Tabiiy omillarning har tomonlama tahlil qilinganda, insonlarning yashash va dam olish faoliyati uchun qulaylik sharoitni baholashda, hududlarning qulay va noqulaylik darajasini ham belgilab beradi.

Tog' va cho'l landshaftlari bu, maksimal estetik-resurs salohiyatiga ega bo'lgan rekreatsion hudud hisoblandi. Hududning ekologik holati va qo'riqlanadigan hududlar, qo'riqxona va milliy bog'lar tabiatini bir butun holda majmuaviy o'rganish, biologik va geografik jihatdan o'xshash bo'lgan

hududlarning tabiiy resurslari va tabiiy sharoitidan oqilona foydalanish turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omildir. Hozirgi kunda milliy tabiat bog'lari muhofaza qilinadigan va turizm-rekreasiya maqsadida tashkil etiladi.

Tadqiqotchi V.I.Krujalin fikriga ko'ra, turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat: hududning iqtisodiy-geografik o'rni; qabul qiluvchi mamlakat va uning turistlarni asosiy yetkazib beruvchisi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi; aholining ijtimoiy va kasbiy tarkibi; turistik infratuzilma va turar joy fondlari mavjudligi, transport vositalarini takomillashtirish; ma'lum bir hududda, ...xizmatlar uchun narx darajasi, aholining real pul daromadlari, ta'tilning davomiyligi, rekreatsion zonalar va turistik yo'nalishlar to'g'risida reklama va ma'lumotlar ishlab chiqish. Yuqoridagi barcha omillar hududda turizm va rekreasiya sohasini rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Markaziy Osiyo respublikalariga, jumladan, O'zbekistonga ham qo'shni Afg'onistondagi siyosiy vaziyat turizmning rivojlanishiga katta ta'sirini o'tkazib kelayapti va har bir mamalakatdagi siyosiy barqarorlik turizmni rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

Turizm sanoatining shiddat bilan rivojlanishi, jahon turizm bozorida raqobatning yuzaga kelishi, turizm infratuzilma faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi va ularning keyingi ixtisoslashuvini aniqlab beradi, hamda sohani rivojlantirishda yetarli shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, turistik-rekreatsion resurslarining barcha turlarini yo'lga qo'yish orqali aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Толстая Е. В. Экологическая медицина. Минск: МГЕУ им. А. Д. Сахарова, 2005. с. 123.
2. Шамуратова Н.Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жihatлари. Г.ф.н. диссерт. авторефер. Т. 2011. 12- 25 б.
3. Ветитнев А. М. Курортное дело: учебное пособие. 20-е изд. стер. -М.: КНОРУС, 2007. - с. 528.

4. Большаков А. С. Организация лесопользования. Сыктывкар: Учебное пособие. СЛИ, 2013. С.14-15
5. Safarov I. B., Husenov J. Q. O'zbekistonda rekreatsion salohiyatini oshirishda GAT texnologiyalarini o'rni //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-2 (130). – С. 241-245.
6. Жумаев Х. Х. Проблемы развития гостиничной инфраструктуры в Кашкадарьинской области //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 714-720.
7. Жумаев Х. Х. Концепция туристских деревень и теоретико методологические основы их исследования //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 927-936.
8. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.
9. Жумаев Х. Х., Тогаева Г. З. Экономико-географические особенности повышения инвестиционной привлекательности региона //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 908-917.